



## ИННОВАТСИОН ТА’ЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА «О‘ЗБЕКISTONNING ENG YANGI TARIXI» FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Seytmuratov E.*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalari  
Universiteti Nukus filiali, «Iqtisodiyot va gumanitar fanlar»  
kafedrası tadqiqotchisi*

**Tayansh so‘zlar:** tarix, talaba, hodisa, voqea, jarayon, o‘qituvchi, innovatsiya, interfaol.

**Ключевые слова:** история, студент, событие, процесс, преподаватель, инновация, интерактив.

**Key words:** history, student, event, process, teacher, innovation, interactive.

### **РЕЗИЮМЕ:**

Maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o‘qitish samaradorligini oshirish haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, tarix fanlarining o‘ziga xosligi, xarakteri ularni o‘qitishda muammoli, rivojlantiruvchi, loyiha, kompyuter, masofaviy, hamkorlik, interfaol, innovatsion va modul, shuningdek, o‘yinga asoslangan ta’lim turlarini tanlash va didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida fikrlar berilgan.

### **РЕЗИЮМЕ:**

В статье представлена информация о повышении эффективности преподавания предмета «Новейшая история Узбекистана» на основе инновационных образовательных технологий. Также высказываются мнения уникальность и характер исторических предметов в их преподавании - проблемный, развивающий, проектный, компьютерный, дистанционный, коллективный, интерактивный, инновационный и модульный, а также целесообразность выбора игровых видов обучения и эффективного использования дидактических возможностей.

### **SUMMARY:**

The article provides information on increasing the efficiency of teaching the subject “Modern History of Uzbekistan” based on innovative educational technologies. Opinions are also expressed about the uniqueness and nature of historical subjects in their teaching - problem-based, developmental, project-based, computer-based, distance learning, collective, interactive, innovative and modular, as well as the feasibility of choosing game-based types of teaching and effective use of didactic opportunities.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda tarix ta’limi samaradorligini oshirishda metodologik plyuralizm, muntazamlik va izchillik, ilmiy xolislik, tarixiylik

hamda vorislik, nazariy bilimlarning ustuvorligi, fanlararo aloqadorlik, madaniy-tarixiy muhit, tizimlilik, tarixiy vorisiylik, tarixiy hodisa va jarayonlarni tizimli tadqiq qilish kabi tamoyillarga ustuvorlik berish nazarda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiyalash, «zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish» [3] innovatsion o'qitish tamoyillari pedagogik amaliyotga faol tatbiq qilinayotgan mavjud sharoitda tarix fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonda tarix o'qitish metodikasining mazmuni, ustuvor yo'nalishlari, yetakchi tamoyillari, qonuniyatlari A.Asqarov, R.Mamajonova, O'.Mansurov, A.Sagdiev, T.Toshpo'latov, S.To'raev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Prezident Sh.M.Mirziyoevning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo'lgan muloqotida ko'p masalalar muhokama qilinib, taklif va mulohazalar o'rtaga tashlandi, jumladan, quyidagi dolzarb masalalar tilga olindi:

1. mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'pligi, ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozimligi;

2. jahonning yetakchi institutlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish. O'zbek olimlari juda ham katta zaxira to'plaganlari, uni rivojlantirish zarurligi;

3. yuqori salohiyatga ega kadrlar tayyorlash masalasini takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar, dunyo miqiyosi darajasidagi yangi olimlar avlodini tayyorlash darkorligi;

4. ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyatga egaligi va aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratilishi [2];

5. ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmog'i taraqqiyotida katta o'rin tutadi, davlat esa, bu yo'lda avvalo olimlarga suyanishi, chunki ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiya bo'lishi – dolzarb masalaligiga e'tibor qaratdi.

O'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash hamda ko'paytirish, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi [1].



O'rganishlar natijasiga ko'ra aytish mumkinki, tarix fanlarining o'ziga xosligi, xarakteri ularni o'qitishda muammoli, rivojlantiruvchi, loyiha, kompyuter, masofaviy, hamkorlik, interfaol, innovatsion va modul, shuningdek, o'yinga asoslangan ta'lim turlarini tanlash va didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi (1-jadval) [4].

**1-jadval**

**Innovatsion xarakterdagi ta'lim turlari va ularning tarix fanlarini o'qitishdagi ahamiyati**

№	Ta'lim turlari	Tarix fanlarini o'qitishdagi ahamiyati
1.	Muammoli ta'lim	Talabalar muqobil manbalar asosida tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, tarixiy voqea, hodisa, jarayonlarning ro'y berishida ichki-tashqi omillarning ta'siri, shuningdek, tarixiy shaxslarning o'rni, rolini jamoaviy, guruhli, individual, tahliliy baholash malakalariga ega bo'ladi.
2.	Rivojlantiruvchi ta'lim	Arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar bilan ishlash asosida talabalarda tarixiy voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini baholashga tanqidiy yondashish, ular yuzasidan chuqur-tahliliy izlanishni olib borish, individual qarorlar qabul qilish va individual baholash qobiliyati rivojlanadi.
3.	Loyiha ta'limi	Muayyan tarixiy voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini kichik tadqiqotlar olib borish, ushbu tadqiqotlar natijasiga oid ma'lumotlarni turli ilmiy davrlarda muhokama qilish, natijalarning ekspert sifatida tarixchi olimlar, manbashunoslar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan baholanishiga erishish orqali talabalarda tarixiy mavzularda keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlarni olib borish layoqatiga ega bo'ladi.
4.	Axborot-kommunikatsion texnologialarga asoslangan ta'lim	Talabalar kompyuter texnikasi vositasida voqea, hodisa, jarayonni modellashtirish (morfoloqik jadval, klaster, sintezlovchi diagrammasi, qiyosiy tahlilga asoslangan jadval shaklida ifodalash), tarixiy voqea, hodisa, jarayonlarga oid axborotli ma'lumotlarni vizual ko'rinishga o'tkazish, grafik, organayzerlarda yoritish, ular bo'yicha elektron vositalar (elektron taqdimot, elektron plakat va xronotop, elektron shakldagi didaktik va intellektual o'yinlar, nostandart testlar)ni yaratish malakalarini o'zlashtiradi.
5.	Modul ta'limi	Tarix fanlarini, ular negizida muayyan tarixiy mavzularni modul asosida o'zlashtirish talabalarda tegishli tarixiy davr, voqea, hodisa, jarayon bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish, bilimlarni zarur darajada o'zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

6.	Masofaviy ta'lim	Tarixiy mavzulardagi on-line dars, seminar va trening, videokonferensiyalar vositasida o'quv materiallarini o'zlashtirish, maxsus ta'lim platformalari (Zoom platfaormasi) dan foydalangan holda ularda bevosita ishtirok etish, respublika va xorijiy davlatlarning yetakchi tarixchi olimlari, ekspertlar, tadqiqotchilarning ish tajribalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.
7.	Hamkorlik ta'limi	OTMning tarixchi o'qituvchilari, turdosh OTMda tarix yo'nalishida ta'lim olayotgan magistr talabalar bilan muayyan mavzularda kichik tadqiqotlarni olib borish, ular bilan hamkorlikda ilmiy maqola, monografiyalar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish, tadqiqot natijalarini yetakchi tarixchi olimlar, ekspertlar, tadqiqotchilarning e'tiboriga havola qilish, ular yuzasidan muhokamani tashkil etishga erishish orqali talabalarda tahliliy malakalar, ijodkorlik, kreativlik sifatleri rivojlanadi.
8.	Interfaol ta'lim	Juftlikda, kichik va katta guruhlarda ishlash, bu jarayonning o'zaro raqobatga, bellashuvga asoslanishi tarix fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyaning kuchaytirishi talabalarning o'quv-bilish faoligining oshishi, samarali ijtimoiylashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi.
9.	Innovatsion ta'lim	Talabalarda tayyor tarixiy bilimlarni o'zlashtirish ehtiyoji pasayadi, aksincha, tarixiy voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish, motivatsiya kuchayadi, ijodkorlik, kreativlik sifatleri rivojlanadi.
10.	O'yinga asoslangan ta'lim	Muayyan tarixiy davrga «vizual sayohat» qilish, o'zini tarixiy jarayonlar ishtirokchisi sifatida tasavvur qilish orqali zarur bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan tarixiy bilimlar mustahkamlanadi, mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llash malakalari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanidan mashg'ulotlarni olib boradigan o'qituvchilar bu fanni o'qitishda:

- fanni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari;
- ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, o'qitish metod va vositalari;
- o'qituvchining o'quv me'yoriy hujjatlari va uslubiy ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, o'qitish shakllari, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'limni tashkil etish va o'tkazish metodikasini bilishi hamda ulardan samarali foydalana olishi;



- fanni o'qitish jarayonida talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalarini tahlil etish turlari, shakl va metodlarini, o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalarini bilishi hamda ulardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori. – Toshkent: 2017. – 12 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/4749364>.
4. Boymirzaev X.K. Innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish (O'zbekistonda davlatchilik tarixi» fani misolida): ped.fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. – Namangan, 2022. –B. 5-15.